

VOYAGA ETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI

Xusanov Bekzod Xayrulla o'g'li

Yakkasaroy tuman adliya bo'limi bosh mutaxassisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8431817>

Annotatsiya: bu maqolada O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning kriminologik tavsifi, kelib chiqish sabablari, qanday shart-sharoitlar bunga asos bo'lishi va uni oldini olish xaqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, kriminologik tavsifi, shart-sharoitlar, jinoyat sodir etish sabablari, xukm.

So'ngi yillarda yurtimizda olib borilayotgan keng qamrovli siyosiy jarayonlar zamirida yoshlarga bo'lgan e'tibor, ularning jamiyatda tutgan o'rnini, davlat siyosatining katta bir bo'lagi ekanligidan ham ma'lumki yoshlar siyosati jamiyatda ustuvor vazifalardan bo'lib kelayotganligi sir emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 25-dekabr kuni bo'lib o'tgan "Yoshlar forumi"da so'zlagan quyidagi nutqida "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar" – deya ta'kidlagan edi¹. Ushbu jumalardan ham ma'lumki yoshlarga bo'lgan e'tibor, ularning bilim salohiyati, vatanparvarlik ruxida kamol topishligi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishligi davlatning bosh isloxtlari samarasining namoyon bo'lishidandir.

Aytish kerakki, bugungi kunda voyaga etmaganlar jinoyatchiligining dinamikasi oshib borayotganligini statistik ma'lumotlar orqali ham bilib olishimiz mumkin. O'tgan yilning o'zida 1773 ta voyaga etmagan shaxs sudlangan bo'lsa, ularning 416 tasiga jarima jazosi, 18 ta majburiy jamoat ishlari, 40 ta axloq tuzatish ishlari, 946 ta ozodlikni cheklash, 231 tasiga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo turlari qo'llanilgan. Birgina 2017 yilda voyaga etmaganlar tomonidan qasddan odam o'ldirish 11 ta, o'ldirishga suiqasd qilish 5 ta, qasddan badanga og'ir shikast etkazish 53 ta, nomusga tegish 25 ta, o'g'irlik 956 ta, bosqinchilik 94 ta, talonchilik 79 ta, firibgarlik 30 ta, tovlamachilik 5 ta, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bezorilik 111 ta, o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash 2 ta, valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o'tkazish 1 ta, qalbaki pul, aksiz markasi yoki qimmatli qog'ozlar yasash, ularni o'tkazish 1 ta, poraho'rlik 3 tani tashkil qilgan². Voyaga etmaganlar o'rtasida o'g'irlik, talonchilik, firibgarlik, bir so'z bilan aytganda o'z g'al mulkini talon-taroj qilish jinoyatlari hamda giyoxvandlik jinoyatlari oshib borayotganligi kuzatilmoqda.

O'tgan davr mobaynida respublikamizda jami 1773 ta voyaga etmaganlarga nisbatan sud hukmi o'qilib sudlangan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan olib qaralganda salkam bir

¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/25/forum/>

² Ниёзова С., Алланова А., Ҳақимов К. Вояга етмаганлар жиноий жавобгарлиги. Ўқув қўлланма. //маъсул муҳаррир : ю.ф.д . Ф.Тахиров – 78 бет. 6-7 бетлар.

yarim barobar ko'p ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu ko'rsatkichlarning eng yuqori darajasi Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu natijalardan ko'rishimiz mumkinki profilaktik tadbirlarning etarli darajada emasligi voyaga etmaganlar orasida jinoyatchilikning o'sishiga zamin bo'lmoqda.

Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va ularning sodir etilishiga shart-sharoitning yuzaga kelishini bartaraf etish ham davlatning, ham jamiyatning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Chunki voyaga etmaganlar jinoyat sodir etishligi ularning kelgusida xavfli residivist bo'lib qolishligi ehtimolini oshiradi, bu esa jamiyat va davlatning kelajak taraqqiyotiga hamda o'smir yoshdagi bolaning hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Umumiy jinoyatchilikdan farqli o'laroq voyaga etmaganlar jinoyatchiligi har bir davlatning kelgusidagi taqdiri bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bugungi kunda alohida yondashilmasakelgusida millatning, xalqning tanazzuliga olib kelishi mumkin.

Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda hozirgi zamon talabidan kelib chiqib zamonaviy innovatsion g'oyalarni qo'llagan holda puxta ishlangan va samarali rejalarni qo'llamasdan turib, jinoyatga qarshi kurashib bo'lmaydi.

Respublikamizda voyaga etmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida qator islohotlar, ularning tarbiyasi va ma'naviyatini oshirish borasida bosqichma-bosqich harakatlar olib borilmoqda. Mazkur islohotlarning bosh maqsadi yoshlarning etuk kamol topishi, yuksak ma'naviyatli va iqtidorli, kelajakka to'la-to'kis tayorlashdan iboratdir. Ushbu harakatlarni amalga oshirish uchun jamiyatda voyaga etmaganlar uchun iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan har tomonlama shart-sharoit qilib berilishi yoshlar siyosatini amalga oshirishning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin. Yoshlarga bo'lgan e'tibor, ularning kelgusida davlatga, jamiyatga kerakli shaxs bo'lib etishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral kuni qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish eng ustuvor vazifalardan biri ekanligi ta'kidlangan bo'lsa³, 2022-yil 28-yanvar kuni qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmonining 70-maqsadida ham yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish nazarda tutilgan⁴. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarga ko'ra yoshlarning bandligini, ularni ish bilan ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish yoshlarga oid davlat siyosatining bir qismi ekanligini keltirib o'tishimiz mumkin.

Voyaga etmaganlar orasida sodir bo'layotgan jinoyatlarning oldini olish yuzasidan 2010-yil 29-sentyabrda "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingan⁵. Ushbu qonun hujjatiga yuzlanadigan bo'lsak, unda voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalari voyaga etmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, voyaga etmaganlarning huquqlari, qonuniy manfaatlarini va

³ <https://lex.uz/docs/3107036>

⁴ <https://lex.uz/docs/5841063>

⁵ <https://lex.uz/docs/1685726>

erkinliklarini himoya qilish va boshqa shu kabi ustuvor vazifalarni o'z ichiga oladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, ilmiy ishning dolzarb ekanligini Birlashgan Millatlar Tashkiloti (keyingi o'rinlarda BMT) tomonidan 1980-yilda qabul qilingan "Birlashgan Millatlar Tashkilotining voyaga etmaganlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha rahbariy tamoyillari" nomli normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinganligining o'zi ham isbotlab bermoqda. BMT tomonidan ushbu hujjatning qabul qilinishiyoq ushbu mavzuning dunyo darajasidagi dolzarb muammolardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruxida kamol topishi, jismonan sog'lom bo'lgan yosh avlodni voyaga etishi, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida davomli ishlar olib borilmoqda. 2016-yil 14-sentyabr kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni ham voyaga etmagan yoshlarning intellektual salohiyatini hamda bilim darajasini oshirish, shijoatli va tashabbuskor qilib tarbiyalash uchun mustahkam poydevor vazifasini o'tamoqda¹. O'zbekiston aholisining qariyb 45 foizini voyaga etmagan, o'smir yoshlar tashkil etadi. Bu esa yoshlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashning muhim ekanligini ko'rsatadi. Shuni ham qo'shimcha qilib o'tishimiz mumkinki, voyaga etmaganlar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari o'ziga xos bo'lib, kattalar jinoyatchiligidan biroz farq qiladi. Voyaga etmaganlar jinoyatligining motiv va maqsadlari ko'p holatlarda ularning xohish-irodasi va psixikasidan kelib chiqsa, qolgan holatlarda majburlikdan kelib chiqadi.

References:

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/25/forum/>
2. <https://lex.uz/docs/3107036>
3. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. <https://lex.uz/docs/1685726>